



ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZIGA XIZMAT QILISH MALAKALARINI SHAKILLANTIRISH USULLARI

*Xalqaro Nordik universiteti assistent
o'qituvchisi Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi,
Xalqaro Nordik universiteti Maxsus
pedagogika, defektologiya (logopediya)
yo'nalishi 1-bosqich talabasi Sodiqova Muhayyo*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233396>

Annotatsiya: Mazkur maqolada alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayoni, uning ahamiyati va samarali yondashuvlar bayon etilgan. Shuningdek, ushbu jarayonda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, jismoniy, kognitiv, motivatsion va ijtimoiy to'siqlar tahlil qilinadi. Muammolarni bartaraf etish usullari sifatida individual yondashuv, rag'batlantirish, maxsus metodikalar va oilaviy hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alohida ehtiyojli bolalar, o'z-o'ziga xizmat qilish, mustaqillikni shakllantirish, jismoniy va kognitiv rivojlanish, reabilitatsiya, motivatsiya va rag'batlantirish, ijtimoiy moslashuv.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida inson shaxsini har tomonlama ulug'lash, shaxsning erkinligi, huquqlarini ta'minlash, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimi, ijtimoiy-siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi insonlarni hayot faoliyatini yaxshilashga, jamiyatda faolliklarini ta'minlashga qaratilmoqda. Davlat rahbarimiz Sh.Mirziyoyev inson qadri tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz" [1]. Shu bilan birgalikda bosh qonun Konstitutsiyamizning 50-moddasida, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860- son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda alohida ehtiyojli bolalar hayot faoliyati va ta'lim tizimiga oid bajariladigan ishlar o'z ifodasini topgan. [2]

Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish ularning mustaqilligini oshirish, ijtimoiy hayotga moslashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega jarayondir. Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar bolaning jismoniy, psixologik va ijtimoiy holatiga bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan eng asosiy muammolardan biri jismoniy cheklovlardir. Bunda ayniqsa, motorika muammolari (nozik yoki yirik harakatlarning qiyin bajarilishi) tufayli bolaning kiyinish, tugmalarni qadash yoki qoshiq ushlash kabi harakatlarni bajarishda qiynalishi kuzatiladi. Ko'rish yoki eshitish qobiliyatining cheklanganligi sababli vizual yoki eshitish asosida o'rganish jarayoni qiynaladi.

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayonida kognitiv va rivojlanish cheklovlari kabi muammolar ham uchraydi. Diqqat va xotira bilan bog'liq muammolar, bu esa yangi malakalarni o'rganish va eslab qolish jarayonini sustlashtiradi. O'z-o'ziga xizmat qilish tartibini tushunish va ketma-ket bajarishda qiyinchiliklar, aqliy rivojlanish kechikishi yoki intellektual imkoniyatlarning cheklanganligi sababli murakkab topshiriqlarni bajarishga qiynaladilar.



- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayonida motivatsiyaning pastligi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilishga bo'lgan qiziqish past bo'lishi mumkin. Ichki rag'bat yetishmovchiligi yoki mustaqil harakat qilishga ishonchning pastligi, doimiy yordamga o'rganib qolish natijasida mustaqillikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning sezilmasligi kuzatiladi.

- O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish jarayonida emotsional va ijtimoiy muammolar sirasiga esa o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv yoki tashvish sababli yangi harakatlarni sinab ko'rishga ehtiyoj sezmaslik, jamoaviy muhitda (maktab yoki maxsus markazlarda) o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rganishda qiynalish, boshqalar bilan muloqot qilishda muammolar bo'lgani uchun o'qituvchi yoki ota-onaning tushuntirishlarini qabul qilish qiyin bo'lishi.

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning yetarlicha tayyor emasligi ham asosiy muammolardandir. Ba'zi ota-onalar yoki tarbiyachilar bolani mustaqillikka o'rgatishdan ko'ra, unga yordam berishni afzal ko'rishadi. Malakali mutaxassislarining (logoped, defektolog, terapevt) yetishmovchiligi yoki ularning metodikasi bolaga mos kelmasligi, shu bilan birgalikda uy sharoitida o'z-o'ziga xizmat qilishga mos sharoitning yetishmasligi (masalan, maxsus moslamalar yo'qligi) muammosi ham uchraydi.

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda atrof-muhitga bog'liq to'siqlar ham uchraydi. Infratuzilmaning mos kelmasligi (nogironlar aravachasi uchun qulay joylarning yo'qligi, moslashtirilgan gigiyena vositalarining kamligi), maktab yoki bog'chalarda individual yondashuv yo'qligi, jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan tushunmovchilik yoki yetarli qo'llab-quvvatlashning yo'qligi ham o'z-o'ziga xizmat malakalarining shakllanmasligiga sabab bo'ladi.

Misol uchun autizimli bolalarda o'z - o'ziga xizmat qilishda yetarlicha muammolar yuzaga keladi. O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini rivojlanishi autik bolalarda alohida muammo hisoblanadi. Hattoki eng chaqqon bolalar, alohida is'tedod qobiliyatiga ega bo'lganlari ham hayotiy holat va maishiylikka moslashmagan bo'ladi. Ularda ham o'z-o'ziga xizmat qilish sekin shakllanadi hamda sifatli rivojlanmaydi.[3]

Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi usullarni qo'llash yaxshi samara beradi:

- O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini bosqichma-bosqich o'rgatib borish usuli alohida ehtiyojli bolalarga qulay usul hisoblanadi. Bunda har bir yangi malaka kichik bosqichlarga bo'linib o'rgatilishi kerak. Masalan, kiyinishni o'rganish jarayonida avval ko'ylakni kiyish, keyin tugmalarni qaday olish, so'ngra bog'ichlarni bog'lash kabi ketma-ketlikda o'rgatiladi.

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda vizual va amaliy yordam ko'rsatish ham juda foyda beradi. Rasmlar, piktogrammalar, video darsliklar yoki harakatlarni bosqichma-bosqich tushuntirib beradigan jadvallar kabi ko'rgazmali vositalardan foydalanish jarayonni yanada samaralashtiradi. Amaliy yordam sifatida ota-ona yoki pedagog bolaning harakatlarini dastlab qo'llab-quvvatlab, keyin esa mustaqil bajarishga o'rgatish lozim.

- O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini takroriy mashqlar yordamida mustahkamlab boriladi. Malakalarni rivojlantirish uchun muntazam takrorlash va kundalik hayotga joriy etish zarur. Masalan, tish yuvish, qo'l yuvish yoki poyabzal kiyish kabi odatiy kundalik harakatlarni muntazam bajartirib borish lozim.

- Alohida ehtiyojli bolalarni ham hamma bolalar singari ta'lim-tarbiya jarayonida motivatsiya va rag'batlantirish juda muhim. Bolalarni qo'llab-quvvatlash va kichik yutuqlari uchun rag'batlantirish borish, rag'batlantirish maqtov, yulduzchalar berish, sevimli mashg'ulot bilan mukofotlash orqali amalga oshirishi mumkin.

- Alohida ehtiyojli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda albatta bolalarning shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish lozim. Chunki har bir bola o'ziga xos va uning o'rganish tezligi, qobiliyatlari farq qilishi mumkin. Yondashuv moslashuvchan bo'lib, bolaning ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirilishi lozim.



- O‘z-o‘ziga xizmat qilishni o‘yin usuli orqali o‘rgatish usuli ham juda muhimdir. O‘yinlar orqali o‘rganish bolalar uchun qiziqarli va samarali bo‘ladi. Masalan, qo‘l yuvish jarayonini “sehrli pufaklar” o‘yini orqali o‘rgatish mumkin.

- O‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishni oilaviy qo‘llab-quvvatlash muhim. Ota-onalar va yaqinlar bu jarayonda faol ishtirok etishi va bolaga doimiy yordam berishi kerak. Uy sharoitida ham o‘z-o‘ziga xizmat qilishga sharoit yaratish lozim.

Madaniy-gigiyena malakasini shakllantirish odatlar va ko‘nikmalarning shakllanishi kattalar va butun atrof-muhitning bevosita pedagogik ta’siri ostida amalga oshiriladi. Ko‘nikma va odatlarning mustahkamligi, moslashuvchanligi bir qator omillarga bog‘liq: shartlar, bu ishni o‘z vaqtida bajarish, bajarilgan harakatlarga bolaning hissiy munosabati, muayyan harakatlarda bolalarni muntazam ravishda amalga oshirish. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning yangi mas’uliyatlari, yangi narsalar, bolalarning yangi turlarini egallashi kerak bo‘lgan yangi mahorat, odatlarning shakllanishiga alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, bolalar nafaqat o‘zlari xohlagan narsani emas, balki zarur bo‘lgan narsalarni ham bajarishadi, turli tabiatdagi qiyinchiliklarni yengishadi. Madaniy-gigiyena ko‘nikmalari va odatlar odatda maktabgacha yoshda shakllanadi.[4]

Misol uchun aqli zaif bolalarda qaychi hamda taroqni ushlab qoidalar quyidagicha amalga oshiriladi. Qaychini to‘g‘ri ushlab bilish zarur. Katta barmoq bilan qaychining birinchi uzugini, nomsiz barmoq bilan ikkinchi uzukni, qaychining tutashgan joyiga esa ko‘rsatgich barmoq qo‘yiladi. Qaychini bunday usulda ushlab bir oz noqulay bo‘lib tuyuladi. Lekin ustalar qaychini shu usulda ishlatadi. Bunda qo‘limiz uzoq vaqt charchamaydi.[5]

Alohida ehtiyojli bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lsa ham, to‘g‘ri yondashuv va doimiy mashg‘ulotlar natijasida ular mustaqil hayotga yaxshiroq tayyorlanadi. Alohida ehtiyojli bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat malakalarini shakllantirish ularning mustaqilligini oshirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va hayot sifatini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich yondashuv, vizual va amaliy yordam, doimiy mashg‘ulotlar hamda rag‘batlantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, alohida ehtiyojli bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning mustaqil hayot kechirishiga, balki ijtimoiy integratsiyasiga ham xizmat qiladi. Shu bois, ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar tomonidan uzluksiz qo‘llab-quvvatlash va mos sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018)

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860- son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

<https://lex.uz/uz/docs/-5679836?ONDATE=07.07.2022%2000>

3. M.U. XAMIDOVA. MAXSUS PEDAGOGIKA. (Mutaxassislikka kirish). TOSHKENT-2018. 101-bet.

4. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MADANIY-GIGIYENA MALAKASINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI N.A. Axmedjonova1, V.F. Qo‘ldoshova. Ученый XXI века • 2022 • № 3 (84)

5. SARTAROSHLIK TEXNOLOGIYASI. (o‘quv uslubiy qo‘llanma). Tuzuvchi: 37-sonli alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar maktab texnologiya fani o‘qituvchisi Z. Abdujabbarova. TOSHKENT-2023